FE’L SO‘Z TURKUMI

Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2- bosqich talabasi Chuliboyeva Jasmina

Annotatsiya

Ushbu maqolada fe’l so‘z turkumining nazariy asoslari, grammatik kategoriyalari (zamon, mayl, shaxs-son, nisbat) hamda gapdagi vazifasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Fe’llarning turlari va ularning nutqdagi ahamiyati misollar asosida yoritiladi.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические основы глагола, его грамматические категории (время, наклонение, лицо и число, залог), а также его роль в предложении. Значение глагола раскрывается на примерах.

Abstract

This article analyzes the theoretical foundations of the verb, its grammatical categories (tense, mood, person-number, voice), and its syntactic role in sentences. The importance of verbs is explained through examples.

Kalit so‘zlar

fe’l, so‘z turkumi, zamon, mayl, nisbat, shaxs-son, kesim

Ключевые слова

глагол, часть речи, время, наклонение, залог, лицо и число

Keywords

verb, part of speech, tense, mood, voice, person and number

Kirish

Til tizimida so‘z turkumlari muhim o‘rin egallaydi. Ular orasida fe’l harakat va holatni ifodalovchi asosiy birlik sifatida ajralib turadi. Fe’l nutqning markaziy elementi bo‘lib, gapning mazmuniy yadrosini tashkil etadi.

Zamonaviy tilshunoslikda fe’l kategoriyalarini chuqur o‘rganish nutq madaniyatini rivojlantirish, o‘quvchilarning savodxonligini oshirish va til tizimini ilmiy asosda anglash uchun muhim hisoblanadi.

Mazkur maqolada tahliliy, taqqoslash va tavsifiy metodlardan foydalanildi. Fe’lning grammatik xususiyatlari ilmiy adabiyotlar asosida o‘rganildi va misollar orqali izohlandi.

Fe’lning ta’rifi

Fe’l — harakat bildiruvchi so‘zlar turkumi va shu turkumga oid har bir so‘z. Grammatikada "harakat" so‘zi keng tushunchali bo‘lib, nafaqat harakatni, balki holat yoki hodisani ham bildiradi, mas: yugurmoq, sakramoq, yig‘lamoq, uxlamoq, o‘ylamoq, sevmoq, tinchimoq, qurimoq.

Fe’llar lug‘aviy ma’noga ega yoki ega emasligiga ko‘ra 2 turga bo‘linadi: 1. mustaqil fe’llar; 2.yordamchi fe’llar.

Mustaqil fe’llar, xuddi boshqa mustaqil so‘z turkumlariga oid so‘zlar kabi, lug‘aviy ma’noga ega bo‘ladi, gapning mustaqil bo‘lagi vazifasida kela oladi va hokazo (qarang So‘z turkumlari). Yordamchi Fe’llar lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmaydi. Ular turli yordamchi vazifalarda kelib, turli qo‘shimcha ma’nolar ifodalash uchun xizmat

qiladi. Yordamchi Fe’llar o‘z vazifasiga ko‘ra 3 asosiy turga bo‘linadi: 1) fe’l yasash uchun xizmat qiluvchi yordamchi fe’llar: qil, et, ayla, bo‘l (qabul qilmoq, taklif etmoq, tamom bo‘lmoq kabi); 2) fe’lning analitik shaklini yasash uchun xizmat qiluvchi yordamchi fe’llar (bular, odatda, "ko‘makchi fe’llar" deb yuritiladi). Fe’lning bunday shakllari turli grammatik, modal va boshqa ma’nolarni ifodalaydi: o‘qib bo‘ldi, ko‘rib qoldi, qo‘rqib ketdi va boshqa; 3) bog‘lama vazifasini bajaruvchi yordamchi fe’llar. Masalan, qil, bo‘l: sportchi bo‘lmoq, o‘qituvchi bo‘lmoq.

Mayl kategoriyasi — harakatning voqelikka munosabatini so‘zlovchi nuqtai nazaridan belgilovchi grammatik kategoriya. O‘zbek tilida maylning quyidagi turlari bor: 1) buyruq-istak mayli: ayt, aytgin, ayting kabi; 2) shart mayli. Bu mayl shakli -sa affiksi yordamida yasaladi: borsam, borsang, kursa kabi; 3) shartli mayl — bajarilishi shart ergash gapdan anglashilgan harakatning bajarilishiga bog‘liq bo‘lgan (shartlangan) harakatni bildiruvchi mayl. Bu mayl shakli (a)r edi, mas edi yordamida yasaladi va bu shakldagi Fe’l bosh gapning kesimi bo‘lib keladi: Vaqting bo‘lsa, kinoga borar edik. Imkoning bo‘lsa, bunday qiynalib yurmas eding; 4) maqsad mayli. Bu mayl shakli -moqchi affiksi yordamida yasaladi va harakatni bajarish-bajarmaslik maqsadini bildiradi: so‘ramoqchiman, o‘qimoqchiman, aytmoqchi emasman; 5) ijro mayli — harakat-holatni uning bajarilishi (ijrosi) bilan har uch zamondan birida ifodalaydigan mayl. Bu mayl turi zamon va shaxs-son ko‘rsatkichlari orqali shakllanadi: o‘qidim, o‘qiyapman, o‘qiyman; ko‘rganman, ko‘rgansan, ko‘rgan.

Nisbat kategoriyasi — harakatning subyekt va obyektga munosabatini ko‘rsatuvchi grammatik kategoriya. Harakatning subyekt va obyektga munosabatini ko‘rsatishiga ko‘ra nisbat kategoriyasining 5 turi farqlanadi: bosh nisbat; o‘zlik nisbati; orttirma nisbat; majhul nisbat; birgalik nisbati. Har bir nisbat shakli maxsus qo‘shimcha

yerdamida yasaladi. Faqat bosh nisbat maxsus yasovchi ko‘rsatkichga ega emas. Bosh nisbat harakatning ega bilan ifodalangan shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini bildiradi: oldi, keldi, so‘rayapti va boshqa. O‘zlik nisbati shakli (i)n, (i)l qo‘shimchalari yerdamida yasaladi va harakatning subyektning o‘ziga obyekt sifatida karatilganligini yoki subyektning o‘zi doirasida yuzaga kelishini (bajarilishini) bildiradi: maqtanmoq, ko‘rinmoq, tug‘ilmoq va boshqa Orttirma nisbat shakli -dir, -ir, -t affikslari yordamida yasaladi va obyektsiz Fe’lni obyektiv Fe’lga aylantiradi, obyektli Fe’ldan yasalganda esa unga yana obyekt qo‘shilganini bildiradi: keltir, kuldir, ichir, o‘qit va boshqalar. Majhul nisbat shakli (i)l, (i)n qo‘shimchalari bilan yasaladi va asosiy e’tiborni harakatning bajaruvchisiga emas, balki obyekt bilan harakatning o‘ziga qaratilishini bildiradi: keltirildi, tozalandi. Bu nisbat shakli obyektsiz (o‘timsiz) Fe’llardan yasalganda, shaxssizlik ma’nosi ifodalanadi: (ko‘prikdan) o‘tildi, (mehmonga) borildi va boshqa Birgalik nisbati -sh affiksi yordamida yasaladi va harakatning birdan ortiq shaxs tomonidan, birgalikda bajarilishini bildiradi: (yer) haydashdi, (meva) terishdi va boshqa Demak, nisbat shaklining o‘zgarishi bilan harakatning subyekt yoki obyektga munosabatida o‘zgarish bo‘ladi. Bo‘lishli- bo‘lishsizlik kategoriyasi — harakatning tasdiq yoki inkori ma’nosini ifodalovchi shakllar tizimi. Bu kategoriyaning o‘zaro zidlik hosil qiluvchi 2 jihati bor: bo‘lishlilik va bo‘lishsizlik. Bo‘lishli fe’lning maxsus ko‘rsatkichi yo‘q (nol ko‘rsatkichli). Bo‘lishsiz fe’l shakli esa -ma affiksi yordamida yasaladi: keldi (bo‘lishli shakl) — kelmadi (bo‘lishsiz shakl). Bo‘lishsizlik (inkor) ma’nosi "yo‘q" so‘zi va "emas" to‘liqsiz Fe’li bilan ham ifodalanadi: borgani yo‘q, borgan emas.

Zamon kategoriyasi — harakatning nutq paytiga munosabatini bildiruvchi grammatik kategoriya. Harakatning nutq paytiga munosabatiga ko‘ra Fe’lning 3 zamon turi farqlanadi: o‘tgan zamon — keldi, oldim; hozirgi zamon • — kelyapman,

kelyapti; kelasi zamon — kelaman, olasan va boshqa

Shaxs-son kategoriyasi — harakatning 3 shaxs (so‘zlovchi, tinglovchi, o‘zga)dan biriga oidligi ma’nosini bildiruvchi grammatik turkum: keldim (birinchi shaxs, birlik), keldik (birinchi shaxs, ko‘plik), kelding (ikkinchi shaxs, birlik), keldingiz (ikkinchi shaxs ko‘plik).

O‘zbek tilida Fe’lni ma’lum bir vazifaga xoslovchi shakllar ham mavjud. Bular: sifatdosh (qarang), ravishdosh (qarang), harakat nomi (q) shakllaridir.

Bulardan tashqari Fe’lning turli modal ma’no, takror ma’nosi va boshqa ma’nolarni bildiruvchi shakllari ham bor. Ular maxsus qo‘shimchalar, ko‘makchi fe’llar yordamida hosil qilinadi: keta qol, ketib qoldi, keta ko‘rmoq, turtkilamoq, qo‘rqinqiramoq, kulimsiramoq va boshqalar.

e’llar qanday grammatik shaklda qo‘llanilishiga qarab gapning turli bo‘lagi vazifasida keladi. Mas: mayl, zamon, shaxs-son paradigmasiga mansub shakllardan birida qo‘llanganda — kesim vazifasida; sifatdosh, ravishdosh shakllarida — aniqlovchi, hol vazifasida; harakat nomi shaklida esa ot turkumiga oid so‘zlarga xos vazifalarda keladi.

Fe’l – harakat yoki holatni bildiruvchi so‘z turkumi bo‘lib, “nima qildi?”, “nima qilmoqda?”, “nima qiladi?” kabi savollarga javob beradi.

Fe’lning grammatik kategoriyalari

1. Zamon kategoriyasi:

O‘tgan zamon: yozdi, keldi

Hozirgi zamon: yozmoqda

Kelasi zamon: yozadi

2. Shaxs-son kategoriyasi:

Men yozdim

Sen yozding

U yozdi

3. Mayl kategoriyasi:

Buyruq: yoz!

Shart: yozsa

Istak: yozsam edi

4. Nisbat kategoriyasi:

O‘zlik: yuvindi

Majhul: yozildi

Orttirma: yozdirdi

Fe’lning turlari

Sodda fe’l: kel, bor

Qo‘shma fe’l: yordam bermoq

Yasalma fe’l: ishlamoq

Fe’lning gapdagi vazifasi

Fe’l asosan kesim vazifasida keladi:

U kitob o‘qidi

Tadqiqot natijalari

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, fe’l tilning eng faol va muhim so‘z turkumlaridan biri bo‘lib, nutqning mazmuniy aniqligini ta’minlaydi. Uning grammatik kategoriyalari fikrni to‘g‘ri ifodalashda katta ahamiyatga ega.

Xulosa

Fe’l so‘z turkumi til tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Uni chuqur o‘rganish nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Fe’llarning grammatik kategoriyalari nutqni aniq, ravon va mantiqiy ifodalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan.

Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010.

A. G‘ulomov, M. Asqarova. O‘zbek tili grammatikasi. – Toshkent, 1987.

N. Mahmudov. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent, 2015.

B. Mengliyev. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent, 2018.

Azim Hojiyev. O‘zbek tili asoslari. – Toshkent, 2005.

Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – 2003.